
TUMAN HOKIMINING NAVBATDAGI FUQAROLAR QABULI BO'LIB O'TDI

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayevning navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Qabul jarayonida tuman hokimi tomonidan har bir fuqaroning muammosi tinglandi. Uchrashuvda aholi tomonidan uy-joy, gaz, ichimlik suvi, yo'l, yer, moddiy yordam, sog'liqni saqlash va boshqa maishiy masalalar yuzasidan murojaatlar kelib tushdi.

Unda 30 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. 15 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, 3 nafar fuqaroga moddiy yordam ajratish belgilandi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olindi. 2 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

Qabulda ayrim masalalar yuzasidan qonun doirasida tushuntirishlar berildi. Muddat talab etadigan murojaatlarni hal etish bo'yicha tegishli tashkilotlarga topshiriqlar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

2023-09-19 16:45:11